

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI GEOMETRIK MATERIALLAR BILAN TANISHTIRISH USULLARI

Annotatsiya. Bu maqolada boshlang'ich o'quvchilariga geometrik materiallarni o'rgatishning usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: masala, geometric masala, uchburchak, to'rtburchak, nuqta.

МЕТОДЫ ОЗНАКОМЛЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ С ГЕОМЕТРИЧЕСКИМ МАТЕРИАЛОМ

Аннотация. Работа над геометрическими материалами в начальных классах составление и решение творческих задач учащимся является объектом данной статьи.

Ключевые слова: задача, геометрическая задача, треугольник, четырёхугольник пример, задание.

METHODS FOR FAMILIARIZING ELEMENTARY STUDENTS WITH GEOMETRIC MATERIALS

Annotation. The work with arithmetic tasks in initial classes, drawing up and decision of creative tasks by the pupils is object of given clause.

Keywords: matter, geometrical task, arithmetical action, example, task.

Boshlang'ich sinif o'quvchilarini geometrik materiallar bilan tanishtirishdan asosiy maqsad o'quvchilarga ularni hayotiy geometric tasavvurlarni shakllantirish bilan birga to'g'ri chizish kesmasi, burchaklar, geometrik shakllar (uchburchak, to'rtburchak va ko'pburchak) ning aniq ko'rsatmali tasvirini berish, ularning ba'zi xossalarni ko'rib chiqish va bu bilimlardan bolalarning uzunlik va yuzalarni o'lchay olish malakalarini egallashga foydalana olishni ta'minlashdan iboratdir. Geometrik materiallarni o'quvchilarga o'rgatish jarayonida o'qitishning shunday metodlaridan foydalanish kerakki, natijada o'quvchilarda aniq geometrik tasavvurlar hosil bo'lsin. O'zlashtirish jarayoni boshidan oxirigacha faol, aniq va ko'rgazmali bo'lishi, tushuntirish davomida amaliy mashqlardan keng foydalanishimiz zarur. Bunda o'quvchilar tayyor geometrik shakllar bilan ish olib bormay, balki qirqish, cho'plar bilan ishlash, modellash, qog'oz varog'ini buklash orqali shakllar hosil qilish va ulardan foydalangan holda o'zlari ham shakllarni chizishlaridan (xususan, qachonki tanish shakl murakkab shaklning elementlaridan biri bo'lsa) va atrof borliqni taniy olishlari, yasay bilishlari ham kerak. Geometrik materiallarni o'qitish jarayonida muammoli ta'limdan foydalanish orqali o'quvchilarning tasavvur qilish, mustaqil va erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masalan, o'quvchilarda "uchburchak haqida tushuncha berish uchun magnit doskaga har xil tuzilishdagi rangli uchburchaklarni osib bu shakllar nimasi bilan farq qilishi so'raladi?" Sinfdagi bolalar ko'rib turgan figuralarni farqini, ya'ni rangini, tuzulishi, katta – kichikligini javob tariqasida aytishadi. Ammo figuralar bir – biri bilan farq qilsada (rasmi, tuzulishi, katta – kichikligi bilan) bular nimasi bilan o'xshashligi so'raladi unda o'quvchilar bu shaklning tomonlari, uchlari, burchaklari uchtdan ekanligini aytishadi. Bunday figuralarning qanday nomlanishini o'qituvchi so'rab oladi. O'qituvchi kartondan kesilgan uchta uchburchak ko'rsatadi (birinchisi katta, ikkinchisi kichik, uchinchisi kichkina) va bu shakllar nima ekanligini so'raydi "Nima uchun bular ham uchburchak deyiladi? "Uchburchakda nechta tomon bor?, nechta uch va nechta burchak borligini?" ta'kidlab so'raydi. Uchburchakka boshqa nom qo'yish mumkinmi? Analiz qilinganda bu termin "uchburchak" va unga o'xshash so'zlarni ajratib olish kerakki - uch va uchburchak, o'qituvchi tushuntirib, o'quvchi buni tushunib sintez qiladi: Uch va tomon (yangi termin hosil bo'ladi: uch tomonli), shu bilan bir qatorda o'qituvchilarga har xil materiallardan: cho'plardan, plastilindan, qog'oz va kartondan uchburchaklar yasatish kerak. Geometrik figuralarni yasatishda qog'ozga nuqtalar qo'yib, ularni chizg'ich yordamida tutashtirib, yoki qog'oz buklash yordamida yasash ham mumkinligi o'rgatiladi. Albatta qog'oz kvadrat shaklda bo'lsa o'quvchilarning uchburchak yasashi ancha oson kechadi. Shu maqsad asosida bolalarga savol beriladi. "Bollalar qanday o'ylaysiz, qog'oz qanday buklansa uchburchak hosil bo'ladi?" Agar savolga javob berishda bolalar qiynalsa, o'qituvchi yana savol bilan murojat qiladi. " Eslang uchburchakda nechta uchi

bor ?, Qanday qilib qog'ozni buklash uchburchak hosil bo'ladi?" Keyin o'qituvchi bolalar bilan qog'ozni buklashga tushadi.

Shunday buklash kerakki bir uchi ikkinchi uchga to'g'ri kelishi va qolgan uchlari ham bir – biriga yopishishi kerak. Agar ba'zi uchburchaklarga to'g'ri burchakli varaqlar berilganda bolalar shunday uchburchak yasaydilar, ularning uchlari bir-birlari bilan to'g'ri tutashadi va to'g'ri burchakli uchburchak hosil bo'ladi. Shundan keyin o'qituvchi bolalarga uchburchakning farqlarini aytib o'tishi kerak geometrik figuralarni aytib o'tishi kerak. Geometrik figuralarni o'rgatishda birinchi bo'lib har xil materiallardan chizib chiqish kerak.

"To'g'ri burchak haqida" tushuncha bermoqchi bo'lganimizda quyidagi masala bilan bahs boshlasak bo'ladi. Bolalarga ularning ushbu shaklni hayotda ko'p ko'rganlarini eslatish bilan boshlaymiz. Daftar, dalbom, shu bilan birga devordagi doskaning uchi va boshqalar O'qituvchi sinf xonasidaigi barcha uchlari va to'g'ri burchakli va to'g'ri burchakli bo'lmagan uchlarni ham ko'rsatadi. Ko'rsatilgan paytda o'qituvchi to'g'ri va to'g'ri bo'lmagan burchaklarni tushuntirib o'tadi. Bundan keyin o'qituvchi bolalarga har xil to'g'ri burchakli bo'lmagan qog'oz berib chiqadi. O'qituvchida albatta o'zida ham bitta qog'oz bo'ladi va bolalarga murojat qiladi: "Shunday bu qog'ozni buklangki, to'g'ri burchakli bo'lsin?" deydi. Bunday mashq bolalarga qiziqish uyg'otadi. Agar bolalar eplab bilishmasa, o'qituvchi yordamida bu holatni takrorlashadi. O'qituvchi bilan birgalikda bolalar varaqni ikki buklakka bukalab to'g'ri chiziqli hosil qilishni o'rganishadi. Bundan keyin qog'ozni yana buklash usuli bilan bolalarga yana figuralarni ikki uchlarni birlashtirib buklashlarini so'raydi. O'qituvchi bolalar to'g'ri bajarganliklarini tekshirib chiqadi va buklangan qog'ozni ochilishini so'raydi. Bundan kelib chiqadiki, ikkala to'g'ri chiziqli kesilib bu qog'ozni to'rtta bo'lakka bo'ladi. Bu to'rtta uchlar va bularning eng uchidagi nuqta bitta nuqta. Bundan tashqari hamma uchlari (agar berilgan to'g'ri bajarilgan bo'lsa) bir xil. O'quvchilarga bundan mashqlarni qog'ozda buklagan chiziqlarni ehtiyotkorlik bilan qirqib olishlari ham mumkin va bu figuralarni bir – biri bilan taqqoslashlari mumkin. O'qituvchi istagan o'quvchidan bittadan burchak olib taqqoslashi mumkin va tezda bolalarga bir xillikni isbotlaydi. O'quvchilar diqqatini bir tushunchaga qaratish kerakki, o'zlari mustaqil bajargan bo'lsalar ham natijada bir xil uchlar paydo bo'lgan. Bunday uchlar "to'g'ri" deb ataldi. Bolalar to'g'ri burchakni eslarida chiqmasliklari uchun to'g'ri burchak ko'rgazmalarini doskaga yoki doska yoniga kelib qo'yishi kerak. O'quvchilarga mustahkamlash uchun mashqlar, topishmoqli misollar yechtirish kerak. Amaliyotda ko'rishimiz mumkinki ko'p bolalar to'g'ri burchaklarni farqlab bilmaydilar va figuralarni qo'yishini bilmaydilar. Shuning uchun o'qituvchi bolalarga to'g'ri burchak tushunchasi haqida har darsda to'xtalib o'tishi kerak.

"To'g'ri to'rtburchak" tushunchasini kiritish. Doskada har xil rangdagi to'rtburchaklar va ularning unga uch, to'rtta to'g'ri to'rtburchaklar qolganlari to'rtburchaklar shuningdek birta, ikkita uchi to'g'ri bo'lgan to'rtburchaklarni va yana bitta ham to'g'ri burchagi bo'lmagan figuralarni osib qo'yadi. Ko'rgazmaga shunday tayyorlangan bo'lishi kerakki, ba'zi figuralar bir xil rangda (misol qilib olsak beshburchak va to'rtburchaklar bir xil rangda). O'qituvchi o'quvchilarga to'g'ri to'rtburchakning to'g'ri burchagini topishni taklif qiladi. O'qituvchi bolalarga har xil modellardan to'g'ri burchaklar ko'rsatadi va shundan ko'rinadiki uchinchi to'rtburchakda birta to'g'ri uch, to'rtinchi to'rtburchakda 2 ta to'g'ri uch borligi va birinchi va ikkinchisida bitta ham to'g'ri uch yo'qligi aniqlanadi. Bundan keyin o'quvchilarga topshiriqli beriladi. "To'rtburchaklarni" to'g'ri burchaklarini toping? (ikkinchi bir ko'rgazmadan) bolalar tomonida shu aniqlanadiki hamma to'rtburchaklar to'g'ri burchakli.

O'qituvchi bolalarga savol bilan murojat qiladi: "O'ylab ko'ring, to'rtburchakni hammasi to'g'ri burchakli bo'lsa, qanday deb ataymi?". Bolalar buni tushinishlari uchun qog'ozdan har xil modellar yasashlari kerak.

"Kvadrat" haqida tushuncha. Yuqoridagi materiallardan foydalanib ham bolalarga "kvadrat" haqida tushuntirish ham mumkin. Ammo ishini bolalarga o'yantiruvchi savol berishdan boshlash kerak.

"Bolalar qog'oz olinglar va shunday buklangki, hamma tomoni bir xil va burchaklari ham to'g'ri bo'lsin va buni qanday atash mumkin?"

Bolalar qog'ozni diagonal bo'yicha buklab, ortiqcha qismini qirqib tashlash taklifi kiritiladi. O'qituvchi kvadrat so'zini bolalardan eshitishi kerak, chunki bu haqida malumotni olgan bo'ladilar.

"To'rtburchak" va "Beshburchak"lar haqida tushuncha. O'qituvchi doskadagi chizmaga o'quvchilarning fikrini jalb qiladi, chizmaga to'rtburchaklar va beshburchaklar tasvirlangan. Bir xil shakllarni bir xil rangda olinadi. O'qituvchi shuni ma'lum qiladiki, hamma yashil figuralar besh burchaklar, qizil rasmdagilar esa to'rtburchaklar deb aytiladi. Shundan keyin o'qituvchi bolalarga savol beradi.

"Sizlar qanday o'yaysizlar? Nima uchun hamma qizil figuralar to'rtburchaklar deb, yashil figuralar esa beshburchaklar deyishingiz mumkin?" Bu savol o'quvchilarni o'ylashga majbur qilib, o'qituvchi ularning javob berishlarini kuzatadi va o'quvchilarning oldin olgan bilimlarini sistemaga solish uchun

beriladi. O'quvchilar aytgan termini "to'rtburchaklar" va "beshburchaklar"ni taqqoslashlari kerak bo'ladi. Analiz qilingandan keyin bu terminlar ajratilib, tanish bo'lgan so'zlarni eslab, "to'rt" va "burchak", "besh" va "burchak" so'zlarining mohiyatini tushuntirishga harakat qilish kerak. Bunday analiz bolalarni to'g'ri fikrlashga yo'nalish beradi. Shuni ta'kidlash kerakki "to'rtburchaklar" va "beshburchaklar" tushunchalarini berish ko'pburchaklar tushunchasini tushuntirishga vosita bo'la oladi. .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi Toshkent. "Turon Iqbol " 2016
2. Jumayev M.E., Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi Toshkent. "Fan va texnologiya" 2015
3. Boshlang'ich sinf darsliklarining yangi nashri.
4. Mukhamadovna T. M., Djamshitovna K. M., Narzullayevna Q. S. Art as a significant factor of forming world outlook of students //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.
5. Djamshitovna X. M. Pedagogical Opportunities for Implementing an Individual Approach to the Primary Educational Process //International Journal of Culture and Modernity. – 2021. – T. 11. – C. 192-195.
6. Джемшитовна Х. М. Дидактический потенциал современных информационных технологий в достижении профессиональной компетентности будущего учителя //Международный журнал культуры и современности. – 2021. – Т. 11. – С. 201-204.
7. Джемшитовна Х. М. И др. Педагогические возможности реализации индивидуального подхода к начальному образовательному процессу / / Европейский журнал безопасности и стабильности жизнедеятельности (2660-9630). – 2021. – Т. 12. – С. 252-255.
8. Haydarova M., Yuldashev V. БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАТИВ ЁНДОШУВ //Физико-технологического образование. – 2021. – №. 2.
9. Haydarova M., Yuldashev V. БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАТИВ ЁНДОШУВ //Физико-технологического образование. – 2021. – №. 2.
10. Haydarova M., Qodirova M. ТЕХНОЛОГИЯ ДАРСЛАРИДА БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ТАБИИЙ МАТЕРИАЛЛАР БИЛАН ИШЛАШГА ЎРГАТИШ //Физико-технологического образование. – 2021. – №. 2.